



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**No8**  
MAXSUS SON



## BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 128 sahifa.*

*2025-yil noyabr*

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Candidate of Economic Sciences (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 Makroiqtisodiyot  
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 Ekonometrika va statistika  
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 Marketing  
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 Menejment  
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 28-fevraldagi  
333/5-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....                             | 10  |
| Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna                                                                   |     |
| FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS .....                                                             | 15  |
| Ibrokhimkhuja Rikhsikhujayev, Mohit Bhandwal                                                                                   |     |
| BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....                                      | 22  |
| Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev                                                                                |     |
| BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....               | 27  |
| Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li                                                                 |     |
| YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....                                                                           | 32  |
| Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li                                                              |     |
| OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI .....                                             | 36  |
| Mirkamolov Mirsardor Mirxamdami o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich                                                     |     |
| STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI .....                                     | 41  |
| Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna                                                                  |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI ..... | 46  |
| Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich                                                                         |     |
| IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....                            | 50  |
| Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna                                                                  |     |
| CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE .....                                                          | 56  |
| Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna                                                                      |     |
| JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK .....                                                          | 61  |
| Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich                                                                            |     |
| LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT.....                                                                 | 68  |
| Qurbanov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafayev Golib Sultonmurodovich                                                               |     |
| ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI.....                                                               | 75  |
| Q.Abdukarimov, M.Keldibekova, F.Umarov                                                                                         |     |
| KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                        | 80  |
| Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna                                                                          |     |
| OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI.....                                | 87  |
| Kodirov Ozodbek, F.Umarov                                                                                                      |     |
| QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLAKAT EKSPORTIDAGI O'RNI.....          | 93  |
| G'ulomiddin Bobobek Sardorjon o'g'li, G'ulamov Ilhom Akramovich                                                                |     |
| BIZNESNI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI .....                                                         | 98  |
| Abduhamidova Shodiyaxon Abdushukur qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich                                                    |     |
| O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON HAMKORLIK MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI .....                                                    | 103 |
| Fayzullayev Aminjon, F.Umarov                                                                                                  |     |
| O'ZBEKISTONDA HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLAR .....                                                             | 110 |
| Najmiddinova Malikabonu Asrorovna, F.Umarov                                                                                    |     |
| TO'QIMACHILIK SANOATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'INING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI XUSUSIDA .....                                   | 117 |
| Mahmudov Orifbek Abdumomin o'g'li, Azmiova Feruza Payziyevna                                                                   |     |



|                                                                                                             |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING TARKIBIY RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI ..... | 122 |
| <b>Xayrullayev Javohir Sheraliyevich, Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o'g'li</b>                               |     |
| MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH VA XALQARO TAJRIBA.....                     | 128 |
| <b>Xudoyberdiyev Feruzbek, F.Umarov</b>                                                                     |     |



# MINTAQALARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH VA XALQARO TAJRIBA



**Xudoyberdiyev Feruzbek**

TDIU, "Iqtisodiyot" fakulteti I-75 gurux talabasi



Ilmiy rahbar:

**F. Umarov**

TDIU, Mintaqaviy iqtisodiyot kafedrası dosenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish masalalari, uning amaliy ahamiyati, usullari, istiqbollari va xalqaro tajribasi tahlil qilinadi. Mintaqaviy rivojlanishni tartibga solishning asosiy vazifasi mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy farqlarni kamaytirish, tengsizlikni yumshatish va barqaror rivojlanishni ta'minlashdan iboratdir. Maqolada mintaqalarni rivojlantirishda davlat siyosati, iqtisodiy resurslar, ta'lim va innovatsiyalarning o'rni muhokama qilinadi. Shuningdek, mintaqaviy rivojlanishni tartibga solishning samarali usullari va strategiyalari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Mintaqaviy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy tartibga solish, iqtisodiy tengsizlik, innovatsiyalar, davlat siyosati, barqaror rivojlanish, mintaqalar, resurslar, ta'lim.

**Abstract:** This article analyzes the issues of regulating the socio-economic development of regions, including its practical importance, methods, prospects, and international experience. The main objective of regional regulation is to reduce economic and social disparities between regions, mitigate inequality, and ensure sustainable development. The article discusses the role of government policy, economic resources, education, and innovations in promoting regional development. It also highlights effective methods and strategies for regulating regional development.

**Key words:** regional development, socio-economic regulation, economic inequality, innovations, government policy, sustainable development, regions, resources, education.

**Аннотация:** В данной статье анализируются вопросы регулирования социально-экономического развития регионов, его практическая значимость, методы, перспективы и международный опыт. Основной задачей регионального регулирования является сокращение экономических и социальных различий между регионами, снижение неравенства и обеспечение устойчивого развития. В статье рассматриваются роль государственной политики, экономических ресурсов, образования и инноваций в региональном развитии. Также обсуждаются эффективные методы и стратегии регулирования регионального развития.

**Ключевые слова:** региональное развитие, социально-экономическое регулирование, экономическое неравенство, инновации, государственная политика, устойчивое развитие, регионы, ресурсы, образование.



## KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqyosida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning turli darajalari mavjud. Mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy farq va ijtimoiy muammolar global miqyosda rivojlanayotgan davlatlar uchun katta muammo bo'lib qolmoqda. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda mintaqalar orasidagi iqtisodiy tafovutlar va ijtimoiy adolatsizliklar ko'plab salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Mintaqalarda iqtisodiy salohiyatni oshirish, ijtimoiy farovonlikni ta'minlash va resurslarni samarali boshqarish uchun davlat tomonidan samarali tartibga solish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda.

Mintaqaviy rivojlanish har bir davlatning umumiy iqtisodiy o'sishiga va ijtimoiy barqarorlikka erishishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tartibga solish orqali mintaqalardagi resurslardan samarali foydalanish, ish o'rinlarini yaratish, aholining hayot darajasini oshirish va ekologik muvozanatni saqlash kabi masalalarni hal etish mumkin. Mintaqalar o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish va ularni rivojlantirish uchun davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosatlar hamda chora-tadbirlar nihoyatda muhim hisoblanadi.

Bugungi global iqtisodiyotni inobatga olgan holda, mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy bo'shliqlarni qisqartirish va ularni barqaror ravishda rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o'sishning tezlashuviga, balki jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishga ham xizmat qiladi. Bunda har bir mintaqaning o'ziga xos iqtisodiy imkoniyatlari va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda maxsus dasturlar va strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalasi zamonaviy iqtisodiyotda ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, hududlararo tengsizlikni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Adabiyotlarda mintaqaviy rivojlanishning nazariy asoslari, boshqaruv mexanizmlari, innovatsiyalar roli hamda xalqaro tajribaga asoslangan yondashuvlar keng yoritilgan.

Abdullayev (2016) va Mustafayev (2017) asarlarida mintaqaviy rivojlanishning konseptual asoslari, iqtisodiy omillar va davlat siyosatining ahamiyati tahlil qilinadi. Azizov (2015) hududlararo farqlarning kelib chiqish sabablari hamda ularni yumshatish bo'yicha iqtisodiy siyosat vositalarini ko'rsatadi. Innovatsiyalar va yangi texnologiyalarning mintaqaviy rivojlanishdagi o'rni Pirmatov (2019) hamda Begbutayev va Sayfullayev (2023) tomonidan yoritilib, raqamli transformatsiya, texnologik modernizatsiya va innovatsion klasterlarning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'siri ta'kidlanadi.

Jalolov va Umarov (2018) hududlararo iqtisodiy nomutanosibliklarni statistik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilib, infratuzilmaning rivojlanish darajasi, investitsion faollik va mehnat resurslari taqsimotidagi tafovutlarni asosiy omillar sifatida ko'rsatadi. Maqsudov (2020) esa barqaror rivojlanish tamoyillarini hududiy siyosatga integratsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Toshpo'latov (2021) va Qodirov (2022) mintaqalarni rivojlantirishda davlatning tarkibiy siyosati, fiskal mexanizmlar va boshqaruv islohotlarining samaradorligini o'rganadi.

Xalqaro tajribani o'rgangan tadqiqotlar (Alimov, 2016) mintaqaviy integratsiya, savdo-iqtisodiy hamkorlik va investitsion oqimlarning hududiy rivojlanishga ta'sirini ochib beradi. Statistika agentligi ma'lumotlari esa mintaqalar o'rtasidagi real iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholashda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar mintaqaviy rivojlanishni tartibga solish jarayoni ko'p qirrali bo'lib, davlat siyosati, innovatsiyalar, investitsiyalar, infratuzilma va xalqaro hamkorlikning uyg'unlashuvi orqali samarali natijaga erishish mumkinligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonlarini tahlil qilish, hududlararo farqlarni aniqlash va xalqaro tajribani baholash uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini rivojlanish iqtisodiyoti, mintaqaviy integratsiya va davlat boshqaruvi nazariyalariga oid ilmiy manbalar tashkil etdi (Abdullayev, 2016; Mustafayev, 2017; Azizov, 2015).

Tahlilning amaliy qismida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda xalqaro tashkilotlarning (World Bank, UNDP, OECD) ochiq ma'lumotlari asosida 2020-2025-yillar kesimida hududlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari solishtirildi. YaIM, YaHM, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, eksport-import dinamikasi, aholi jon boshiga daromadlar, bandlik darajasi kabi indikatorlar tanlab olinib, ularning hududlar bo'yicha farqlanishi deskriptiv tahlil orqali baholandi.

Hududiy nomutanosiblik darajasini aniqlashda komparativ tahlil, vertikal va gorizontal solishtirish, trend tahlili hamda hududlarning iqtisodiy salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida faktor yondashuvi qo'llanildi. Mintaqaviy rivojlanishning samaradorligini baholashda esa ijtimoiy ko'rsatkichlar – aholi daromadlari, bandlik, ta'lim xarajatlari va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish darajasi o'rganildi.



Xalqaro tajribani o'rganish jarayonida turli mamlakatlarning mintaqaviy siyosati, integratsiyalashuv dasturlari, innovatsion rivojlanish modellarini tahlil qilish uchun qiyosiy (komparativ) metod, case-study yondashuvi hamda ilg'or tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini baholash uchun transfert tahlili qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Maqolada mintaqaviy rivojlanishni tartibga solishning ahamiyati, ushbu jarayonni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolar va bu muammolarni hal qilish uchun mavjud samarali usullar tahlil qilinadi. Shuningdek, mamlakatlardagi muvaffaqiyatli rivojlanish misollari orqali mintaqalararo tenglikka erishishning amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish nafaqat biror davlat, balki butun dunyo miqyosida muhim ahamiyatga ega bo'lgan masaladir.

Har bir mintaqaning o'ziga xos ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlari mavjud bo'lib, ularning rivojlanishini tartibga solish orqali tengsizliklarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash mumkin. Mintaqaviy rivojlanish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim bo'lib, uning samarali amalga oshirilishi uchun to'g'ri strategiya va tartibga solish mexanizmlari zarur.

Mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy farqlarni kamaytirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun mintaqaviy rivojlanishning ahamiyati katta. Ko'pincha rivojlanishdagi farqlar nafaqat hududiy tafovutlarga olib keladi, balki ijtimoiy notenglik va adolatsizlikni ham yuzaga keltiradi. Shu sababli davlat siyosati va davlat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy islohotlar mintaqalarni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Mintaqaviy rivojlanishning samarali amalga oshirilishi uchun bir qancha usullar mavjud.

Ushbu usullarni to'rt asosiy yo'nalish bo'yicha tahlil qilish mumkin [4]:

A) Mintaqalarni rivojlantirishda resurslar, ayniqsa tabiiy resurslar va inson kapitali muhim ahamiyatga ega. Har bir mintaqaning o'ziga xos resurslaridan samarali foydalanish orqali iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash mumkin. Misol uchun, qishloq xo'jaligi resurslaridan foydalanishni yaxshilash, sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish orqali iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish mumkin.

B) Ta'lim tizimi va professional malakani oshirish mintaqaviy rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Ta'limga e'tibor qaratish, mintaqaning barcha qatlamlaridagi aholining bilim va ko'nikmalarini oshirish, yuqori malakali ishchi kuchi yaratishga yordam beradi; bu esa iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi.

C) Texnologik innovatsiyalar mintaqaviy rivojlanishni tartibga solishda muhim vosita hisoblanadi. Yangi texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va yangi sanoat tarmoqlarini yaratish orqali iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin.

D) Davlatning iqtisodiy siyosati mintaqaviy rivojlanishda muhim ahamiyatga ega. Mintaqalarga alohida e'tibor beruvchi byudjet siyosati, soliq imtiyozlari, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish orqali mintaqaviy farqlarni kamaytirish mumkin. Shuningdek, davlatning mintaqaviy rivojlanishga oid ilg'or dasturlarni ishlab chiqishi va amalga oshirishi muhimdir.

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish uchun quyidagi asosiy strategiyalarni ishlab chiqish lozim [4]:

1. Hududiy integratsiya: mintaqaviy integratsiya orqali iqtisodiy tarmoqlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, savdo va investitsiyalarni ko'paytirish, hududlar o'rtasida tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish zarur.

2. Barqaror rivojlanish tamoyillari: barqaror rivojlanish prinsiplarini mintaqaviy strategiyalarda o'zaro uyg'unlashtirish, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning uyg'unligini ta'minlash muhimdir.

3. Mahalliy va xalqaro hamkorlik: xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, mahalliy hukumatlar va biznes sektori o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash mintaqaviy rivojlanishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradi.

Jumladan, ELG yondashuviga muvofiq, YalMning real o'sishi nafaqat mehnat va kapital miqdorining o'sishiga, balki multiplikator effekti orqali eksportning o'sishiga tayanadi. Eksportga yo'naltirilgan siyosat tufayli eksportning o'sishi resurslarni samarali taqsimlash va potentsialdan unumli foydalanish orqali bilvosita iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin (Awokuse, 2003; Pillay, 2011).

Indeks qiymati savdo aylanmasi, investitsiyalar oqimi, savdo qiymati, turistik va migratsiya oqimi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha hisoblanadi.

1. Mintaqa mamlakatlari bir-birining iqtisodiyotiga kiritayotgan investitsiyalarning ortishi indeks qiymatining oshishiga eng katta hissa qo'shdi. Shunday qilib, mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi investitsiya oqimlari (kiruvchi va chiquvchi) hajmining umumiy investitsiya oqimlari hajmidagi ulushi 5,6 barobar oshdi.


2. O'sishning ikkinchi muhim ko'rsatkichi mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmining oshishi hisoblanadi. O'zaro tovar aylanmasining umumiy tovar aylanmasidagi ulushi 1,5 barobar ko'paydi.



3. Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zaro savdo qiymati boshqa savdo sheriklarinikiga qaraganda o'rtacha 4 barobar past. Bu holat Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqa doirasida transport infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha faol siyosat olib borilayotgani bilan izohlanadi.

4. Bugungi kunga kelib, yurtini sayyohlik maqsadlari bilan tark etgan Markaziy Osiyo mamlakatlari fuqarolarining 80 foizdan ortig'i mintaqaviy turizmni afzal ko'radi. Bu umumiy tarix va bir xil qadriyatlarga asoslangan mintaqa mamlakatlarining kuchli madaniy integratsiyasidan dalolat beradi. Shu bois, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi kooperatsiya indeksi doirasida umumiy sayyohlik oqimlarida mintaqaviy turizmning ulushi 83 foizni tashkil etadi.

5. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi migratsiya oqimlarini hisobga olgan holda aytish mumkinki, Markaziy Osiyo mamlakatlari yashash va ishlash uchun kelgan odamlarning atigi 15,3 foizi ushbu mamlakatlarning fuqarolaridir. Ya'ni, Markaziy Osiyo mamlakatlari aholisi uchun mintaqa yashash joyini tanlash yoki ish qidirish jarayonida ustuvor ahamiyatga ega emas (1-rasm) [10].



1-rasm. Markaziy Osiyo davlatlari hamkorlik indeksi


Ma'lumot uchun: indeks mintaqalararo hamkorlikni mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro jarayonlarning umumiy jarayonlardagi ulushi sifatida baholash qoidasiga asoslanadi. Ushbu mamlakatlarning umumiy tovar aylanmasida mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi tovar aylanmasining ulushini misol sifatida keltirish mumkin.

So'nggi yillarda respublikada investitsion muhitni yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 12 dan ortiq qonun hamda 60 dan ortiq farmon va qarorlar qabul qilindi. Tadbirkorlarning murojaatlarini ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida "Biznes ombudsman" instituti, Bosh vazir qabulxonalari hamda investorlar uchun yagona markaz tashkil etildi. 2021-yilda mamlakatimiz tarixida ilk bor qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarni xususiyashtirish jarayoni boshlandi. Agar 2016-yilda fuqarolari mamlakatimizga vizasiz kirib chiqishi mumkin bo'lgan davlatlar soni 9 tani tashkil etgan bo'lsa, viza tizimi isloh qilinishi natijasida bunday davlatlar soni 2022-yilda 90 tadan oshdi. Shuningdek, investorlar va ularning oila a'zolari uchun alohida "investitsion viza" tizimi joriy qilindi.

Amalga oshirilgan islohotlar o'z natijasini bermasdan qolmadi. Masalan, 2017-2022-yillarda O'zbekiston xalqaro Iqtisodiy erkinlik indeksi umumiy reytingida o'z o'rnini 31 pog'onaga yaxshilab, 148-o'ringan 117-o'ringa ko'tarildi. 2017-yilda iqtisodiyotga kiritilgan jami investitsiyalar hajmi 14 milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 1,7 barobar oshib, 24 milliard AQSH dollariga yetdi. Bugungi kunda jahonning 50 dan ortiq davlati O'zbekistonga barqaror tarzda investitsiya kiritmoqda.

Ular iqtisodiyotimizning asosan metallurgiya, energetika, kimyo sanoati, elektrotexnika, mashinasozlik va yengil sanoat tarmoqlarida faoliyat yuritmoqda. Investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishi va aholining turmush darajasi yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Jumladan, 2025-yil yanvar-oktabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (TSA) 66,5 milliard AQSH dollariga yetdi va 2024-yilning yanvar-oktabriga nisbatan 11 752,3 million AQSH dollariga yoki 21,5 foizga ko'paydi.



2-rasm. Tashqi savdo aylanmasi yanvar-oktabr, mln AQSH dollari

TSAda eksport hajmi 29 005,9 million AQSH dollariga (2024-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 27,8 foizga o'sdi) va import hajmi 37 533,4 million AQSH dollariga (16,9 foiz o'sish) yetdi. Hisobot davrida tashqi savdo balansi 8 527,5 million AQSH dollari miqdorida manfiy saldo bilan shakllandi.

O'zbekiston jahonning 210 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining yuqori ulushi Xitoy (19,7 foiz), Rossiya (15,9 foiz), Qozog'iston (5,9 foiz), Turkiya (3,7 foiz) va Koreya Respublikasi (2,2 foiz) hissasiga to'g'ri keldi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 73,3 foizni tashkil etib, unda asosan sanoat tovarlari (10,9 foiz), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (8,2 foiz), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,0 foiz) hamda har xil tayyor mahsulotlar (4,9 foiz) hissasi yuqori bo'ldi.

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya (12,6 foiz), Xitoy (5,6 foiz), Qozog'iston (4,1 foiz), Afg'oniston (4,1 foiz), Turkiya (3,2 foiz), Fransiya (2,7 foiz), BAA (2,1 foiz), Qirg'iz Respublikasi (1,7 foiz), Tojikiston (1,6 foiz) va Pokiston (1,1 foiz) kabi davlatlar bo'ldi. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 38,8 foizni tashkil etdi.

|                       | 2023-y.  | 2024-y.  | 2025-y.  |
|-----------------------|----------|----------|----------|
| Xitoy                 | 10 804,3 | 10 237,0 | 13 110,3 |
| Rossiya Federatsiyasi | 7 930,0  | 9 656,7  | 10 602,4 |
| Qozog'iston           | 3 592,4  | 3 423,6  | 3 932,0  |
| Turkiya               | 2 614,2  | 2 461,3  | 2 432,1  |
| Koreya Respublikasi   | 1 878,5  | 1 660,3  | 1 442,1  |
| Afg'oniston           | 693,5    | 886,3    | 1 316,9  |
| Fransiya              | 773,3    | 990,4    | 1 205,5  |
| Hindiston             | 609,4    | 789,7    | 1 089,2  |
| Germaniya             | 876,7    | 973,3    | 1 056,4  |
| BAA                   | 515,1    | 526,1    | 1 046,2  |
| Turkmaniston          | 939,1    | 950,4    | 876,8    |
| AQSH                  | 501,4    | 740,5    | 809,2    |
| Qirg'iz Respublikasi  | 814,1    | 674,4    | 787,3    |
| Belarus               | 508,0    | 581,4    | 785,6    |
| Tojikiston            | 605,6    | 564,5    | 654,3    |
| Eron                  | 418,4    | 405,0    | 455,8    |
| Pokiston              | 319,6    | 343,1    | 427,6    |
| Italiya               | 417,7    | 369,1    | 390,3    |
| Niderlandiya          | 193,2    | 215,0    | 334,5    |
| Yaponiya              | 189,6    | 336,3    | 326,8    |

3-ram. O'zbekiston Respublikasining yirik hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi yanvar-oktabr, mln AQSH dollari



Bundan tashqari, ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari sifatida aholi jon boshiga daromadlari, aholining bandlik darajasi va ta'lim xarajatlari tanlab olindi. Ushbu ko'rsatkichlar hududlardagi aholining ijtimoiy rivojlanish darajasini belgilab, ularning turmush darajasi va sifatini aniqlashga yordam beradi hamda xizmatlarning mavjudligi va samaradorligini ko'rsatadi.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida tuzilgan quyidagi ikki jadval hududlarning rivojlanishidagi nomutanosiblikni aniq namoyish etib, mavjud holat haqida tahlil va xulosalar chiqarishga imkon yaratadi. O'zbekiston Respublikasi hududlarining 2020-2025-yillardagi iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili davomida hududlararo sezilarli darajadagi nomutanosibliklarni kuzatish mumkin.

Toshkent shahrida YaIM o'sish sur'ati eng yuqori ko'rsatkichga – 6,2 foizga, YaHM esa 5,2 foizga ega bo'lib, ushbu hudud mamlakatimizning iqtisodiy markazi sifatida sanoat ishlab chiqarishda ham yetakchilik qiladi (82 500 mlrd so'm). Qishloq xo'jaligi bo'yicha esa eng past ko'rsatkich Toshkent shahrida kuzatiladi (9 200 mlrd so'm).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi hududlarining iqtisodiy rivojlanish bo'yicha ko'rsatkichlari (2020-2025-yillar)

| Hudud nomi                | YaIM o'sish sur'ati (%) | YaHM o'sish sur'atlari(%) | Sanoat ishlab chiqarish (mlrd so'm) | Qishloq xo'jaligi (mlrd so'm) |
|---------------------------|-------------------------|---------------------------|-------------------------------------|-------------------------------|
| Toshkent shahri           | 6.2                     | 5.2                       | 82500                               | 9200                          |
| Toshkent viloyati         | 5.5                     | 5.3                       | 63500                               | 14200                         |
| Samarqand viloyati        | 5.8                     | 4.0                       | 41500                               | 18300                         |
| Farg'ona viloyati         | 5.4                     | 4.0                       | 37400                               | 16700                         |
| Andijon viloyati          | 5.6                     | 3.5                       | 35600                               | 15200                         |
| Namangan viloyati         | 5.3                     | 5.3                       | 33100                               | 14100                         |
| Buxoro viloyati           | 5.2                     | 3.42                      | 28900                               | 13200                         |
| Qashqadaryo viloyati      | 5.1                     | 3.5                       | 27500                               | 12600                         |
| Surxondaryo viloyati      | 5.0                     | 3.1                       | 26200                               | 11900                         |
| Xorazm viloyati           | 5.0                     | 4.0                       | 24800                               | 11200                         |
| Jizzax viloyati           | 4.9                     | 3.5                       | 23600                               | 10500                         |
| Sirdaryo viloyati         | 4.8                     | 3.2                       | 22200                               | 9700                          |
| Navoiy viloyati           | 5.7                     | 4.9                       | 41200                               | 8800                          |
| Qoraqalpog'iston viloyati | 4.7                     | 2.5                       | 21000                               | 9300                          |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qumitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Toshkent shahrining yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishining asosiy sabablaridan biri uning qulay infratuzilmasi, mehnat resurslarining yuqori konsentratsiyasi va rivojlangan moliyaviy xizmatlaridir. Toshkent viloyatida ham yuqori ko'rsatkichlar kuzatilib, YaIMning o'sish sur'ati 5,5 foiz, YaHMning o'sish sur'ati esa 5,3 foizga teng. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha ham yetakchi o'rinlardan birida turadi (63 500 mlrd so'm).

Samarqand viloyatining iqtisodiy o'sish darajasi 5,8 foiz, hududlar bo'yicha o'sish sur'ati esa 4,0 foizga teng. Samarqand viloyati sanoat ishlab chiqarish bo'yicha yuqori o'rinlarda turadi (41 500 mlrd so'm), qishloq xo'jaligi bo'yicha esa yetakchi viloyat hisoblanadi (18 300 mlrd so'm).

Farg'ona iqtisodiy mintaqasida YaIM o'sish sur'atining o'rtacha ko'rsatkichi 5,4 foizni tashkil etib, qishloq xo'jaligi bo'yicha O'zbekistonda yetakchilik qiluvchi iqtisodiy rayon hisoblanadi. Janubiy iqtisodiy mintaqada joylashgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida YaIM o'sish sur'ati 5,0-5,1 foizga teng. Bu hududlar sanoat ishlab chiqarishi va qishloq xo'jaligi bo'yicha pastki o'rinlarni egallaydi.

Mirzacho'l iqtisodiy mintaqasidagi Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida YaIM o'sish sur'atlari past darajani ko'rsatib, bu viloyatlarning iqtisodiy rivojlanishi sekinligini anglatadi. YaIM o'sish sur'ati bo'yicha eng past ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatiladi (4,7 foiz). Mazkur hududda sanoat ishlab chiqarish ham eng quyi ko'rsatkich bilan ifodalanadi.

YaIM o'sish sur'ati bo'yicha uchinchi o'rinda Navoiy viloyati turib, sanoat ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi hududlardan biri hisoblanadi. Biroq qishloq xo'jaligi bo'yicha eng past pog'onani egallaydi.

O'zbekiston Respublikasida hududlararo tafovutni yo'qotish uchun har bir hududning iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib iqtisodiy dasturlarni ishlab chiqish va investitsiya siyosatini faollashtirish talab etiladi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish nafaqat milliy, balki global miqyosda ham muhim ahamiyatga ega. Bunda davlat siyosati, innovatsiyalar, ta'lim tizimi, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va xalqaro hamkorlik muhim rol o'ynaydi. Mintaqaviy rivojlanishning samarali yo'nalishlari va strategiyalari esa davlatning barqaror rivojlanish yo'lida muvaffaqiyatli ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga erishishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdullayev, Sh. (2016). Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va uning omillari. Toshkent: O'zbekiston Iqtisodiyot akademiyasi nashriyoti.
2. Mustafayev, R. (2017). Mintaqaviy rivojlanish va uning strategiyalari. Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
3. Pirmatov, A. (2019). Mintaqalarni rivojlantirishda innovatsiyalar va texnologiyalar. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Begbutayev, H. A., & Sayfullayev, S. I. (2023). Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish. Qarshi davlat texnika universiteti.
5. Azizov, B. (2015). Rivojlanish iqtisodiyoti va mintaqaviy siyosat. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti.
6. Jalolov, M., & Umarov, U. (2018). Hududiy iqtisodiy o'sish va mintaqaviy farqlar. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish vazirligi.
7. Maqsudov, M. (2020). Barqaror rivojlanish: mintaqaviy yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston davlat iqtisodiyot universiteti.
8. Toshpo'latov, S. (2021). Mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishda davlat siyosati. Toshkent: Iqtisodiy siyosat nashriyoti.
9. Azizov, Z. (2014). Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning asosiy prinsiplari. Toshkent: Ilm nashriyoti.
10. Alimov, F. (2016). Mintaqaviy integratsiya va uning iqtisodiy samaradorligi. Toshkent: O'zbekiston Innovatsiyalar va texnologiyalar universiteti.
11. Qodirov, M. (2022). Rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy tahlili va mintaqaviy siyosat. Toshkent: O'zbekiston jurnalistika akademiyasi.
12. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti: <https://stat.uz>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---